

Nazarova Eliza

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

“Xoreografiya jamoalari rahbari” ta’lim

yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Matluba Murodova

Annotasiya: Mazkur maqolada o‘zbek raqs san’ati tarixi, qadimiy va boy milliy madaniyati haqida ayrim mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: tomosha san’ati, teatr san’ati, pantomim raqs, raqs san’ati, zang, “Lagan” raqsi, milliy kolorit, Xorazm.

Annotasiya: V dannoy statye dayetsya nekotorye predstavleniye ob istorii uzbekskogo tansa, drevney i bogatoy nasionalnoy kulture.

Klyucheviye slova: ispolnitelskoye iskusstvo, teatralnoye iskusstvo, tanes-pantomima, iskusstvo tansa, zang, tanes «Lagan», nasionalniy kolorit, Xorezm.

Annotation: This article gives some idea about the history of Uzbek dance, ancient and rich national culture.

Key words: performing arts, theatrical art, pantomime dance, dance art, zang, Lagan dance, national color, Khorezm.

O‘zining qadimiy va boy milliy madaniyati bilan jahon sivilizasiyasiga ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimizning tomosha san’ati: teatr san’ati, shu jumladan raqs san’ati kabi xilma-xil janrlardan iborat boy san’at turi chuqur estetik ahamiyatga ega. Asrlar davomida rivojlanib, shakllanib kelgan raqs san’ati durdonalarida xalqimizning eng oliyjanob, ulug‘vor maqsadlarga yo‘naltirilgan qarashlari o‘z ifodasini topgan hamda raqs san’ati nomoddiy madaniy merosning nodir manbalaridan biri hisoblanadi.

Mustaqillikka erishganimizning boshlang‘ich davrida ma’naviy qadriyatlarni tiklash va milliy mentalitetimizni belgilaydigan noyob ma’naviy merosimizni, xususan, milliy qadriyatlarimiz, shu jumladan raqs san’atimizning o‘ziga xos an‘analarini saqlash, targ‘ib etish va rivojlantirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat berila boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2020-yil 4-fevraldagi 4584-sonli “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2020-yil 4-fevraldagi 4585-sonli “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlarida ham milliy madaniyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan milliy raqs san’atini rivojlantirish uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan jihatlarga alohida e’tibor qaratilganligini ko‘rish mumkin.

“Ko‘p asrlik boy va betakror madaniyatimizning ajralmas qismi bo‘lgan milliy raqs san’atining xalqimiz ma’naviyati, badiiy-estetik qarashlarini yuksaltirish, yosh avlodni

milliy qadriyat va an‘analarimizga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu esa ushbu san‘atni bugungi kunda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlarga mos holda rivojlantirish, milliy raqsning turli yo‘nalish va namunalarini, mamlakatimizning turli mintaqalarida shakllangan mumtoz raqs maktablarini qayta tiklash va kelajak avlodlarga bezavol yetkazish hamda bu boradagi ta‘lim-tarbiya, targ‘ibot ishlarini kuchaytirishni taqozo etmoqda”[1.], deyilgan Prezidentimiz imzolagan Qarorda.

Raqs san‘ati haqida so‘z borar ekan, alabttta uning tarixiga ham nazar tashlash zarur. Raqs san‘atidagi harakatlari ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas. Uzoq yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar, hamda olimlarning taxminlariga ko‘ra, raqs elementlari dastlab odamlar tomonidan ovlanadigan, ularning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan hayvonlarning harakatlariga taqlid qilishdan boshlangan.

Xorazm, Surxondaryo, Farg‘ona, Samarqand va Qashqadaryo hududlarida joylashgan qadimgi shahar va qal‘alarning xarobalari, ibodatxonalar va qasrlarda olib borilgan arxeologik qazilmalarda topilgan arxitektura yodgorliklari, turli haykalchalar, devorlarga chizilgan suratlar o‘sha davrda yashagan aholining turmush tarzi, dunyoqarashi, madaniyati, san‘ati haqida ma‘lumot beradi. O‘zbekiston hududlarida topilgan va ibtidoiy jamiyat davriga mansub tasviriy san‘at yodgorliklarida pantomim raqsga tushib turgan kishilar tasvirlarini juda ko‘p uchraydi. Bu tasvirlarning ba‘zilarida mehnat va ov jarayonini tasvirlangan bo‘lsa, ba‘zilari qandaydir tabiat hodisalariga topinayotganga, sajda qilayotganga o‘xshaydilar. Tog‘-toshlarga chizilgan bu rasmlardan shuni anglashimiz mumkinki, dunyoning turli qit‘alarida bo‘lganidek, O‘zbekiston territoriyasida ham insonning boshqa qiyofaga kirishi va pantomim o‘yin san‘ati ibtidoiy davrlardanoq shakllana boshlagan.

Yillar, asrlar o‘tishi bilan O‘rta Osiyoda “ovchilik o‘yinlari” ham paydo bo‘la boshlagan. Bu o‘yin ibtidoiy jamiyatning ma‘lum davrida paydo bo‘lgan ibtidoiy odamning diniy e‘tiqodi bilan aloqador o‘yindir. Bu “o‘yin”ni ibtidoiy odamlar ovga ketish oldidan ijro etganlar, unda ovning baroridan kelishi uchun ibtidoiy odam tabiat hodisalariga, ayrim yovvoyi hayvonlarga sig‘inganlar va ular sharafiga turli marosimlar o‘tkazganlar va ular ijro etgan raqslarda ayrim hayvonlarga va ov jarayoniga taqlid qilingan.

“Ovchilik o‘yini”dagi pantomim raqs va musiqaviy tovushlarni ijro etishda jamoa a‘zolarining hammasi qatnashgan. Ibtidoiy jamiyatning navbatdagi rivojida tug‘ilgan totemistik va animistik diniy e‘tiqod marosimlari ham teatr san‘atining eng ilk elementlari tug‘ilishida ma‘lum darajada rol o‘ynadi.

Bu davrlarda hayvonlar niqobida o‘ynaladigan juda ko‘p o‘yinlar va tomoshalar keng tarqalganligi, niqob kiyib hayvonlarga taqlid qilib o‘ynaladigan pantomim raqslar – “ot o‘yini”, “echki o‘yini”, “pishak (mushuk) o‘yini”, “ayiq o‘yini”, “sher o‘yini”, “yumronqoziq o‘yini”, “qoplon o‘yini” singari marosim o‘yinlari paydo bo‘ldi.

Qora tog‘ etaklaridagi Sarmishsoy qoyatog‘larida topilgan suratda qandaydir nafis va maishiy bir raqs tasvirlangan. Raqqoslarning qo‘l, oyoq, tana harakatlaridagi keskin va aniq chiziq hozirgi Xorazm xalq o‘yinlariga o‘xshab ketadi. Abu Rayhon Beruniy ham o‘zining

20-Iyul, 2026-yil

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”[2, 1.2015.] asarida otash bilan bog‘liq raqs udumlari haqida ajoyib ma’lumotlar keltiradi. U qadimda xorazmliklarda “Ochom” bayrami bo‘lganligini, bu bayram yangi yil bayrami sifatida nishonlanganini yozadi.

Xorazm san’ati va madaniyati to‘g‘risidagi ayrim ma’lumotlar G.P.Snesarevning “Legenda O Xorezma”[3,1983.], I.Jabborovning “Ko‘hna xarobalar siri”[4,17-b.], T.Qilichevning “Xorazm xalq teatri”[5,64-b.], M.Raxmonovning “O‘zbek teatri tarixi”[6, 53-b.], Ozod Masharipov “Xorazm tarixiga bir nigoh”, Ma’mun Xorazm Akademiyasida arxivlarida saqlanayotgan manbalar orqali bizgacha yetib kelgan.

Xorazm shohliklari, Xiva xonliklari davrlaridan bugungi kungacha o‘ynalib kelinayotgan “Lagan” raqsining ham o‘ziga xos tarixi bor. Bu raqs faqat imo ishora, tan-badan a’zolarini harakatga keltirib o‘ynaladigan raqsdir. Raqqosa ijro davomida Lagan ichida musiqa sadolari ostida raqsga tushadi. Gavdaning belidan tepasidagi a’zolar harakati boshlanadi. Qo‘llar asta musiqaga mos tepaga ko‘tarila boshlaydi. Oyoqlar jim. Endi ko‘zlar xarakati musiqaga mos xarakatga kela boshlaydi. Ko‘zlar chapga qaraydi, bo‘yin tebranadi, ko‘zlar o‘nga qaraydi, bo‘yin tebranadi, oyoqlar jim. Asta sekin qoshlarni o‘ynatish, kipriklarni qoqish xarakatlari iyaklarni uchirish davom etadi oyoqlar jim. Tepadan qo‘llar pastga tusha boshlaydi, barmoqlar titrab yelka kengligida ochilib og‘ziga yaqinlashadi, barmoqlar lablarga yaqinlashib musiqaga mos tarzda lablarni ifoda etuvchi imo ishoralar bilan mazmunli, harakatlar yaratadi oyoqlar jim. Bu raqsda tana a’zolarini har bir bo‘lagini alohida bir-biriga o‘xshamagan harakatlar, ishoralar yaratishi va takrorlanmasligi shart bo‘lgan. Bu raqs bugungi kunda ham bayram va tadbirlarda ijro etilib kelinmoqda.

Xalqimiz tomonidan saqlanib, qayta sayqallanib yaratilgan boy milliy raqs san’timiz merosini rivojlantirish va yanada kamol toptirishda, ayniqsa, jahonga tanitishda o‘zbek raqs san’atining mashhur namoyondalari va san’atshunos olimlari ulkan hissa qo‘shib kelmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi 4584-sonli “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori.
2. Beruniy Abu Rayhon. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar.T. Tanlangan asarlar. 1- jild. 2015
3. Snesev G.P. Xorezmskiy legendi.Izd.»Nauka» M. 1983
4. Jabborov I. Ko‘hna xarobalar siri. T.: “Fan”, 1968. –B.6-17.
5. Qilichev T. Xorazm xalq teatri, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, Toshkent, 1988 yil, 64- bet.
6. Rahmonov M. O‘zbek teatri. Toshkent, 1976 yil.
7. Rahimov A. Ofatijon “Lazgi”. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 1994-yil, 22-aprel.
8. Matyoqubova G. Ofatijon Lazgi.T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1993; Matyoqubova G. Lazgi. T.: 2020.